



OILAVIY ZÓRAVONLIK ISHLARIDA ADVOKATNING HUQUQIY HIMOYA FAOLIYATI: ÓZBEKISTON VA XALQARO TAJRIBA

Umbetbayeva Ayzada

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Magistratura bólimi 70420101-Advokatlik faoliyati 2-bosqich
magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18280202>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-yanvar 2026 yil
Ma'qullandi: 13-yanvar 2026 yil
Nashr qilindi: 17-yanvar 2026 yil

KEY WORDS

Oilaviy zo'ravonlik, jinoyat protsessi, advokat ishtiroki, himoya pozitsiyasi, jabrlanuvchi huquqlari, xalqaro tajriba, huquqiy himoya, ijtimoiy xizmatlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlik jinoyatlarida advokatning ishtiroki, uning huquqiy asoslari hamda xalqaro tajribadagi o'rni tahlil qilinadi. Mamlakatimizda advokatlarning himoya pozitsiyasi nafaqat sud jarayonida, balki tergov va sudgacha bo'lgan bosqichlarda ham jabrlanuvchilarning huquqlarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Janubiy Koreya va boshqa xorijiy davlatlar tajribasi misolida advokatning ijtimoiy xizmatlar bilan hamkorligi va jabrlanuvchilarni huquqiy hamda psixologik qo'llab-quvvatlashdagi roli ko'rsatib beriladi. Maqola yakunida O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirishda advokat ishtirokining dolzarbligi va istiqbollari yuzasidan xulosalar keltiriladi

So'nggi yillarda O'zbekistonda oilaviy (maishiy) zo'ravonlik masalasi jiddiy ijtimoiy muammo sifatida o'sib bormoqda. Xususan, 2023 yilgi sud statistikasi ma'lumotlariga ko'ra, ayollarga nisbatan zo'ravonlik va tazyiq bilan bog'liq 2638 ta jinoyat ishi hamda 10 091 ta ma'muriy huquqbuzarlik ishi ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, MJtKning 59¹-moddasi va Jinoyat kodeksining 126¹- moddalari asosida minglab shaxslar ma'muriy yoki jinoyat javobgarligiga tortilgan. ¹

Xalqaro tashkilotlar, jumladan Amnesty International, qayd etishicha, O'zbekiston oiladagi zo'ravonlikni qonunda alohida jinoyat sifatida tan olgan beshinchi davlatga aylangan. Shu bilan birga, jabrlanuvchi ayollar hamda bolalarning ruhiy, iqtisodiy va jismoniy zo'ravonlik turidan himoyasi hali to'liq ta'minlamayapti.

Oilaviy zo'ravonlik jinoyatlari O'zbekistonda eng dolzarb ijtimoiy-huquqiy muammolardan biri bo'lib, u nafaqat jabrlanuvchilarning huquqlarini, balki jamiyat barqarorligini ham izdan chiqaradi. Bunday ishlarni ko'rishda advokatning ishtiroki inson huquqlarini ta'minlash va adolatli sudlovni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ <https://gov.uz/oz/zomin/news/view/37767>

Amaliyotda advokatning himoya strategiyasi bir necha yo'nalishlarda namoyon bo'ladi: ayblov dalillarining qonuniyligini tekshirish va zarur hollarda rad etish; sudga yengillashtiruvchi yoki jabrlanuvchiga nisbatan zóravonlikni isbot qilishda og'irlashtiruvchi holatlarni taqdim etish; jabrlanuvchining huquqlarini ta'minlash, jumladan himoya orderi va moddiy zarar uchun kompensatsiya talab qilish; yarashuv institutidan foydalanish imkoniyatini ko'rib chiqish.

Xalqaro tajribaga murojaat qiladigan bo'lsak, 2025 yilda chop etilgan ReINVEST klinik sinovi doirasida o'tkazilgan tadqiqot (A. K. Hagos va hammualliflar) oilaviy zo'rvonlikning kamayishida huquqiy va psixologik yordamning o'rnini naqadar muhimligini ko'rsatdi. Tadqiqotda ishtirok etgan ayollarning 92 foizdan ortig'i erkaklarning impulsivligi va zo'rvonlik xatti-harakatlarida muayyan ijobiy o'zgarishlarni qayd etgan. Natijalarda uchta asosiy omil ajratib ko'rsatildi: o'zgarishga bo'lgan iroda (determination to change), ijobiy muhit yaratilishi (enabling environment) va o'zgarishlarning bosqichma-bosqichligi (continuum of changes).²

Mazkur xulosalar advokatning oilaviy zo'rvonlik ishlarida olib boradigan himoya pozitsiyasiga ham bevosita taalluqli. Chunki advokat nafaqat yuridik jihatdan himoya qiladi, balki jabrlanuvchini psixologik yordam yoki ijtimoiy xizmatlarga yo'naltirishi, himoya orderlari orqali xavfsizlikni ta'minlashi va sudga ijtimoiy omillarni hisobga olishni talab qilishi mumkin. Shu tariqa, advokatning himoya pozitsiyasi milliy qonunchilikka asoslanishi bilan birga, xalqaro tajriba va inson huquqlarini ta'minlash tamoyillari bilan boyitilishi zarur.

Xalqaro tajribada oilaviy zo'rvonlikka qarshi kurashishda nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki advokatlarning ham faol ishtiroki alohida o'rin tutadi. Masalan, Janubiy Koreyada olib borilgan tadqiqotlarda (Hyunkag Cho va boshqalar, 2019) ko'rsatib o'tilishicha, oilaviy zo'rvonlikdan jabrlangan shaxslar uchun keng ko'lamli ijtimoiy xizmatlar joriy qilingan: vaqtincha turar-joy markazlari, psixologik maslahatlar, huquqiy yordam, tibbiy xizmat va guruh terapiya dasturlari.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Janubiy Koreyada ayollarning taxminan 30 foizi turmush o'rtog'i yoki yaqin erkak qarindoshidan zo'rvonlik ko'rganini bildirgan. Rasmiy politsiya hisobotlariga ko'ra esa yiliga 200 mingdan ortiq oilaviy zo'rvonlik holati qayd etiladi. Biroq mutaxassislar bu ko'rsatkich aslida ancha yuqori ekanini ta'kidlaydi, chunki ko'p hollarda jabrlanuvchilar ariza bermaydi. Shu bois advokatlarning faol ishtiroki zarur bo'lib, ular jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilishda asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi.

2017 yil ma'lumotlariga ko'ra, Janubiy Koreyada 200 dan ortiq boshpana (shelter) va 100 ga yaqin maslahat markazi faoliyat yuritgan. Politsiya tomonidan oilaviy zo'rvonlik bo'yicha chaqiruvlarga 90 foiz hollarda tezkor javob berilgan, biroq ularning yarmidan ko'pida jinoyatchiga nisbatan huquqiy choralar ko'rilmagan. Bu esa advokatlarning sudgacha bo'lgan bosqichlarda ham faol ishtirokini talab qiladi.³

² Hagos, A. K., Thain, E., Cox, S., Knight, L., Schofield, P., & Butler, T. (2021). Women's experiences of changes in related men's impulsivity and domestic violence following men's participation in the ReINVEST clinical trial. *International Journal for Crime, Justice and Social Democracy*, 10(3), 97–111.

³ Cho, H., Choi, Y. J., Choi, G.-Y., Bae, J., & Seon, J. (2019). Social policies and services for survivors of domestic violence in South Korea. *International Social Work*, 62(1), 305–317

Shuningdek, boshpana xizmatlaridan foydalangan ayollarning 60 foizi ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli qayta integratsiya qilingan. Bu ko'rsatkich advokatlarning ijtimoiy xizmatlar bilan hamkorlik qilishi, jabrlanuvchini himoya orderlari, kompensatsiya va bandlik dasturlaridan foydalanishga yo'naltirishi orqali samaradorlik oshishini anglatadi.

Janubiy Koreya tajribasining yana bir muhim jihati — empowerment (salohiyatni oshirish) tamoyilidir. Bu yondashuvga ko'ra, jabrlanuvchiga faqatgina himoya choralari emas, balki o'z huquqlarini anglash va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlari ham yaratiladi. Advokatning huquqiy maslahatlari, jarayonlarni tushuntirib berishi va jabrlanuvchini o'zini erkin ifoda etishga rag'batlantirishi ana shu tamoyilni ro'yobga chiqaradi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, O'zbekistonda ham advokatlarning oilaviy zo'ravonlikka oid ishlarida nafaqat yuridik himoya bilan cheklanmay, balki jabrlanuvchini ijtimoiy xizmatlarga yo'naltirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa mutasaddi organlar bilan hamkorlik qilish, himoya orderlari tizimidan samarali foydalanishni targ'ib qilish kabi qo'shimcha vazifalarni bajarishi maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikka oid jinoyatlar sonining ortib borishi ushbu muammoni nafaqat ijtimoiy, balki huquqiy jihatdan ham dolzarb masalaga aylantirmoqda. Mamlakatimizda advokatlarning bu jarayondagi ishtiroki jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish, ayblanuvchilarga nisbatan adolatli sudlovni ta'minlash va umuman jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, advokatlarning faqat sud zalida emas, balki sudgacha bo'lgan bosqichlarda ham faol ishtiroki jabrlanuvchilarning huquqiy himoyasini kuchaytiradi, zo'ravonlikdan keyingi ijtimoiy integratsiyani osonlashtiradi va himoya orderlari, kompensatsiya mexanizmlaridan samarali foydalanishga yordam beradi.

Takliflar

1. Oilaviy zo'ravonlikdan jabr ko'rgan shaxslarga bepul advokat yordamining yo'lga qo'yilishi

Oilaviy zo'ravonlik holatlarida jabr ko'rgan shaxslarning huquqiy yordamga bo'lgan ehtiyoji nihoyatda katta bo'lgani bois, ular uchun bepul advokat xizmatini ta'minlash tizimini yaratish zarur. Moliyaviy jihatdan mustaqil bo'lmagan yoki zo'ravon shaxsga iqtisodiy qaramlikda bo'lgan jabrlanuvchilar ko'pincha malakali yuridik himoya olish imkoniyatidan mahrum bo'lib qoladi. Shu sababli davlat tomonidan moliyalashtiriladigan bepul yuridik yordam tizimining joriy etilishi jabr ko'rganlarning huquqlarini o'z vaqtida va samarali himoya qilishga xizmat qiladi.

2. Jabr ko'rgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy-huquqiy markazlarni tashkil etish

Oilaviy zo'ravonlikdan aziyat chekkan shaxslar uchun huquqiy, psixologik va ijtimoiy xizmatlarni bir joyda ko'rsatadigan maxsus markazlarni yaratish dolzarbdir. Ushbu markazlarda advokatlar, psixologlar va ijtimoiy xodimlar ishtirokida kompleks yordam ko'rsatish yo'lga qo'yilishi jabr ko'rganlarning ruhiy tiklanishiga, ularni himoyalangan muhit bilan ta'minlashga hamda jamiyatga qayta moslashuv jarayonini yengillashtirishga xizmat qiladi. Mazkur markazlar zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan profilaktik va ma'rifiy faoliyatni ham amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston amaliyotida ham advokatlarning oilaviy zo'ravonlik bo'yicha ishlarda kengroq vakolat va imkoniyatlarga ega bo'lishi, ijtimoiy xizmatlar bilan hamkorligi

kuchaytirilishi zarur. Bu bir tomondan jinoyat protsessida adolatli himoyani ta'minlasa, ikkinchi tomondan jamiyatda oilaviy zo'ravonlikka nisbatan murosasiz munosabatni shakllantiradi.

Shunday qilib, oilaviy zo'ravonlik jinoyatlarida advokat ishtirokini kengaytirish va ularning huquqiy-himoya mexanizmlarini takomillashtirish mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilishning muhim kafolatlaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jinoyat-protsessual huquq: Darslik / Yuridik fanlar doktori, professor M. A. Rajabova tahriri ostida. — To'ldirilgan va qayta ishlangan uchinchi nashr. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. — 732 b.
2. "O'zbekistonda 6 oyda 5 mingdan ortiq fuqaro oilaviy zo'ravonlik uchun jazolandi". — Xalq so'zi, 2023. <https://xs.uz/uz/post/ozbekistonda-6-oyda-5-mingdan-ortiq-fuqaro-oilavij-zoravonlik-uchun-zhazolandi>
3. "Oilaviy zo'ravonlik: Jinoyatmi yoki ma'muriy huquqbuzarlik?" — Gov.uz rasmiy sayti, 2023. <https://gov.uz/oz/zomin/news/view/37767>
4. "O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlik: muammo va yechimlar". — Qalampir.uz, 2023. <https://www.qalampir.uz/uz/news/-2375-80686>
5. Hagos, A. K., Thain, E., Cox, S., Knight, L., Schofield, P., & Butler, T. (2021). Women's experiences of changes in related men's impulsivity and domestic violence following men's participation in the ReINVEST clinical trial. *International Journal for Crime, Justice and Social Democracy*, 10(3), 97-111.
6. Cho, H., Choi, Y. J., Choi, G.-Y., Bae, J., & Seon, J. (2019). Social policies and services for survivors of domestic violence in South Korea. *International Social Work*, 62(1), 305-317.